

AJDODLARIMIZ TOMONIDAN TIBBIY GIYOHLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turaboyev Abbos Ne'mat o'g'li

Termiz davlat universiteti

Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishi yo'lida xizmat qilgan ajdodlarimiz faoliyati va tibbiyotga doir asarlari haqida so'z yuritiladi.,

Kalit so'zlar: Gippokrat, Gallen, "Tibbi Nabiy", Ibn Sino "Al-qonun fit-t-tibb", inson anatomiyasi va fiziologiyasi, "juz'iy" kasalliklar, dorishunoslik, gigiyena.

ABSTRACT

This article discusses the activities and medical works of our ancestors who contributed to the advancement of medicine from folk medicine to the level of an independent science.

Key words: Hippocrates, Gallen, "Tibbi Nabiy", Ibn Sina's "Al-qanun fit-t-tibb", human anatomy and physiology, "minor" diseases, pharmacology, hygiene.

KIRISH

Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Galenning muhim o'rni bor. Masalan, Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorlarning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda xalq tabobatining mavjud tajribalariga tayanadi va ularni ilmiy idrok etish yo'lidan boradi. Galen esa xalq tabobati tajribalaridan yuqoriga ko'tarilib, birinchi bo'lib, organizmdagi a'zo va sistemalarning tuzilishi va funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga oid asarlari milodiy XVI asrgacha tabobatning asosi bo'lib xizmat qilgan.

Jahon tabobati tarixida "Sharq tabobati" yutuqlari muhim o'rinn tutadi. Sharq tabobatining tadrijiy rivojlanishiga turtki bo'lgan omillar ko'p. Shunday omillardan biri payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning tabobatga oid nodir hadislaridir.

Muhammad alayhissalom hazratlarimizning tabobat ilmimdan chuqr bilimdonliklari va ba'zida bemorlarga davo usullarining tavsiya etganliklari to'g'risida "Tibbi Nabiy" ("Payg'ambar tabobati") nomli risola ham nashr etilgan. Bu risola Jalol al-Husayniyning "Ravzat al-ahbob" ("Mahbublar bog'i") nomli asarining bir qismini tashkil etadi.

Kitobda aytishicha, payg‘ambarimiz, masalan, bosh og‘rig’iga qarshi xinani qo’llagan. Bosh og‘rig‘i zo‘riqishining oldini olish uchun bemorga qon oldirishni buyurgan. Bu hozirgi ilm-fanda "gipertoniya" (qon bosimi) kasalligi deb atalib, o‘scha paytdagi "qon olish", zuluk qo‘yish kabi davolash usullaridan hozir ham foydalilaniladi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) tabobati to‘g‘risida fikr yuritilar ekan, ul Hazratning quyidagi bir qator hadislari ham tibbiy jihatdan doimo qimmatlidir:

1. Ummatlarim uchun qo‘rqadigan jihatlarim: qorin solib semirish, seruyqulik, dangasalik va sust e’tiqodda bo‘lishidir.
2. Zaytun bilan bo‘yaning va uning yog‘ini o‘zingizga surting, chunki u muborak daraxtdan chiqadi.
3. Agar suv ichsangiz, so‘rib-shimib iching. Suvni birdan, yutoqib ichish jigar kasalligini keltirib chiqaradi.
4. Behi yejish yurak dardini ketkazadi.
5. Sigirning suti shifo, yog‘i davo, go‘shti esa kasallikdir.
6. Ey, Allohnning bandalari, davolaning. Chunki Alloh Taolo har bir kasallikni davosi bilan yaratgan. Faqat birgina kasallikka davo yo‘qdir. U ham bo‘lsa, qarilikdir.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ning bunday hikmatlari Sharq tabobati ilmining rivojida dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan va aytish joizki, ular inson salomatligi yo‘riqnomasi hamdir.

O‘rta asrlarda yunon, sanskrit va boshqa qadimiy tillarda mavjud tibbiyotga oid manbalar, jumladan, Aristotel, Dioskorid va Gallenning dorishunoslikka oid asarlari arab tiliga tarjima qilinishi Sharq tabobati rivojini yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Bu davrda Sharq islom dunyosida tabobat ilmi va amaliyotining dovrugli namoyondalari dunyoga keldi. Chunonchi, Abu Hanifa ad-Dinovariy (815 yilda tug‘ilgan) “Kitob fin-n-nabot” (“O‘simliklar haqida kitob”) ni yozib, unda 482 xil o‘simlikning o‘ziga xos dorivorlik xususiyatlarini bayon etadi. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “Kitob as-saydana fi-t-tibb” (“Tibbiyotda dorishunoslikka oid kitob”) asari o‘rta asrlardagi tabobatning eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kitobi bilan Beruniy O‘rta Osiyoda dorishunoslik ilmi – saydanaga asos soldi.

O‘rta asr Sharqida tabobat sohasidagi yana bir ulug‘ olim va hakim, bu – Abu Bakr ar-Roziydir. Olim tabobat ilmida obro‘ va e’tibor qozondi. Unga o‘z davrida Bag‘doddagi yirik shifoxonani boshqarish ishonib topshirildi. Abu Bakr ar-Roziyini Sharqdagi ko‘p mamlakatlarning sultonlari o‘z poytaxtlarida ko‘rishni va tibbiy faoliyat olib borishini xohlar edi. Bu tabobat allomasi 15 yil davomida o‘z davri tibbiyoti qomusi bo‘lgan 25 jildlik “Al-jome’ al-kabir va qad urifa bi-l-Hovia” (“Al-Hoviy nomi bilan bog‘langan katta to‘plam”) asari ustida ishladi. Asar tugallanmagan

bo‘lsa-da, ko‘p asrlar mobaynida sharq va g‘arbda o‘ta qadrli manbalardan biri bo‘lib keldi. Uning 10 jilddan iborat “Tabobat kitobi” hamda “Chechak va qizamiq haqida” deb atalgan yana ikki kitobi ham o‘rta asr jahon tabobatida katta shuhrat qozondi.

Shak-shubhasiz, o‘rta asrlar Sharq tabobatida Abu Ali ibn Sino nomi va uning tibbiyot sohasidagi nodir faoliyati katta o‘rin tutadi. Uning “Al-Qonun fi-t-tibb” (“Tib qonunlari) nomli buyuk asari toki XVII asrgacha G‘arb dorilfununlarida amaliy qo‘llanmalardan bo‘lib keldi.

Ibn Sinoning tabobat fani sohasidagi xizmatlari buyukdir. U o‘z asarlarida eng qadimgi fanlardan biri bo‘lgan tibbiyotning o‘zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay, uni yangi yuqori bosqichga ko‘tardi, hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan bir qator yutuqlarini oldindan ko‘ra bildi.

Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan tibbiy asarlari 30 dan oshadi. Shulardan asosiyлари o‘zbek tiliga tarjima qilinib nashr etilgan¹.

Ibn Sinoning tabobatga oid eng yirik shoh asari “Kitob al-Qonun fi-t-tibb” (“Tib qonunlari kitobi”) hisoblanadi. O‘z davridagi tibbiyot fanining mufassal qomusiy hisoblangan bu asarda inson sog‘ligi va kasalliklariga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. “Qonun” 1012–23 yillar mobaynida yozilgan bo‘lib, uning ko‘plab nusxalari tezlik bilan tarqaladi.

Bu asar ko‘p o‘tmay Yevropaga ham yetib keldi. XII asrdayoq Kremonalik Gerard (1114–1187) “Qonun”ni arabchadan lotin tiliga tarjima qiladi va shundan keyin Yevropa dorilfununlarida tabobat fani Ibn Sino asarlari bo‘yicha o‘qitila boshlanadi. “Qonun” uzoq yillar asosiy qo‘llanma va darslik sifatidagi qiymatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi. Birinchi bor u Uyg‘onish davridagi insonparvarlik markazlardan biri bo‘lgan Strasburg shahrida 1473 - yili bosilib chiqadi. Umuman “Qonun” 40 martadan ortiq to‘la holda nashr etilgan. Ayrim nusxalarining nashri esa son-sanoqsizdir.

Uning arabcha matni 1593 – yiliyoq Rimda nashr etilgan edi. Keyinchalik XIX asrda bir necha bor qaytadan bosildi. “Qonun”ning ayrim qismlari ingliz, nemis va fransuz tillariga ham tarjima qilingan bo‘lsa-da, bu muhim asar keyingi vaqtlargacha hozirgi zamon tillaridan birontasiga to‘la holda tarjima qilinmagan edi. Bu qiyin va mas’uliyatli ishni o‘zbek sharqshunoslari tabiblar bilan hamkorlikda amalga oshirdilar: “Qonun”ning beshala kitob o‘zbek va rus tillarida 1954–1961 yillar

¹ Ular quyidagilar: Hikmatullaev X. Abu Ali ibn Sinoning “Yurak dorilari” nomli risolasi, T. 1966; Shoislamov Sh. Ibn Sinoning tibb haqidagi she’riy asari (“Urjuza”) T. 1972; Abu Ali ibn Sinoning sog‘liqni saqlashga doir risolalari, E. Talabov tarjimasi, T. 1978. Bu va undan tashqari Ibn Sinoning quyidagi 7 risolasi U. I. Karimov va X. Hikmatullaevlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan: “Tibbiy risolalar to‘plami” nomi bilan bir kitob shaklida nashr qilingan (T. 1987); “Tomir urishi haqida maqola”, “Shahvoniy kuchlar haqida risola”, “Sardora quvvatlaringin tadbiri haqida risola”, “Sikzakbo‘yin osteomieliti va uning oliyligi haqida risola”, “Sachratki haqida risola”, “Judiya risolasi” va boshqalar

mobaynida Toshkentda nashr etildi. 1980 yili Ibn Sino tug‘ilganiga 1000 yil to‘lishi munosabati bilan “Qonun”ning ikkinchi tuzatilgan nashri e’lon qilindi².

Ibn Sino “Qonun”ni besh kitobga bo‘lgan: I kitobda tabobatning umumiy nazariyasi: inson anatomiyasi va fiziologiyasi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning alomatlari, davolashning umumiy asoslari, badantarbiya va sog‘liqni saqlash tadbirlari bayon etilgan.

II kitob dorishunoslikka bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘simlik, ma’dan va hayvonlardan olinadigan 811 sodda dorining nomi alifbo tartibida joylashtirilib ta’riflanadi va har bir dorining qanday kasallikka davo ekanligi ko‘rsatiladi.

III kitobda “juz’iy” kasalliklar, ya’ni insonning boshidan tovonigacha har bir a’zosida bo‘ladigan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari bayon etiladi.

IV kitob insonning biron muayyan a’zosiga xos bo‘lmagan, balki butun gavdasida yuz berishi mumkin bo‘lgan kasalliklarga bag‘ishlangan.

V kitobda murakkab dorilar, ya’ni tabiatda tayyor holda uchramaydigan dorilar (turli taryoklar, ma’junlar, malhamlar, hapdorilar va h.k.) ni tayyorlash haqida so‘z boradi.

Ibn Sino sog‘liqni saqlash, turmush gigiyenasi va to‘g‘ri ovqatlanish masalalariga katta ahamiyat bergen, uning bu sohadagi maslahatlari hozirgacha ham o‘z qiymatini yo‘qotgan emas. Salomatlikni saqlashda badantarbiyaning barcha yoshdagи kishilar uchun ham zarur ekanligini qayta-qayta ta’kidlaydi.

Inson tanasiga tashqi omillarning ta’siri masalasiga katta ahamiyat bergen Ibn Sino ba’zi kasalliklarning suv yoki havo orqali tarqalishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Kasalliklarni (xususan ichki kasalliklarni) to‘g‘ri aniqlashga, ularning qanday kechishini to‘la va aniq tasvirlab bergenligi va bu sohadagi kashfiyotlari bilan Ibn Sinoni hozirgi zamon terapiyasining asoschilaridan biri, deb atashga imkon beradi.

Meningit, oshqozon yarasi, zotiljam, o‘pka yallig‘lanishi, sariq kasalligi, qizamiq, chechak, turli yomon yaralar va qator boshqa kasalliklarni shu qadar to‘g‘ri va mufassal ta’riflab berganki, unga hatto hozirgi zamon shifokorlari ham qoyil qoladilar.

Ibn Sino asabiy va ruhiy kasalliklarni aniqlash va ularni davolash sohasida ham ko‘p yangiliklar kiritgan. Uning jarrohlik sohasidagi ishlari ham juda muhimdir. Ibn Sinoning dorishunoslikka qo‘shgan hissasi nihoyatda salmoqlidir. U taklif etgan

² Abu Ali ibn Sino. Tibb qonunlari, I kitob, T. 1983 (tarjimonlar A. Rasulov, S. Mirzaev, U. I. Karimov, A. Murodov); II kitob, T. 1982 (tarjimonlar S. Mirzaev, A. Rasulov, U. I. Karimov, A. Murodov, K. Munirov); III kitob, 1-jild, T. 1979 (tarjimonlar A. Rasulov, M. A’zamov); III kitob, 2-jild, T. 1980 (tarjimonlar S. Mirzaev, A. Rasulov); IV kitob, T. 1980 (tarjimonlar A. Rasulov, A. Urinboev); V kitob, T. 1980 (tarjimonlar U. I. Karimov, K. Munirov). Ikkinchi nashr tayyorlovchilari: U. I. Karimov va X. Hikmatullaev.

dorilar asrlar davomida keng qo'llanilib kelgan. Ularning ko'pi hozir ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Ibn Sino kabi o'zining butun bilimini va hayotini inson salomatligini saqlashga, tabiat qonunlarini ochishga, adolat va haqiqat uchun kurashga bag'ishlagan buyuk olimlarning asarlari ko'p asrlardan beri butun insoniyat uchun bitmas-tuganmas bilim manbai vazifasini o'tqab kelish bilan birga, hozir ham ular madaniy taraqqiyotga, va xususan inson salomatligini saqlash ishiga xizmat qilmoqda. Mana shuning uchun oradan 1000 yil o'tgan bo'lishiga qaramasdan buyuk vatandoshimiz Ibn Sinoning nomi barcha xalqlar tilida katta ehtirom bilan tilga olinmoqda va asarlari qaytadan nashr etilmoqda.

Ushbu ko'pmasalali mazmunli turkum kitoblarda anatomiya, fiziologiya, patologiya, terapiya, dorishunoslik, gigiyena kabi tibbiyotning turli sohalari qamrab olingan va boyitilgan. Abu Ali ibn Sino o'z asarida keyinchalik tabobat ilmi va amaliyoti rivojiga katta yo'l ochgan ayrim fundamental g'oyalarni ham ilgari suradi. Masalan, "Tib qonunlari"da isitma, yallig'lanish, chechak, qizamiq kabi yuqumli kasalliklarni qandaydir kuzatuv ko'rinas Jonivorlar qo'zg'ashi bayon etilgan. Bu keyingi tibbiyot ilmida kasallik tarqatuvchi viruslar, mikroblar to'g'risidagi tadqiqotlar yo'nalishini yuzaga keltirdi. Shuningdek, Ibn Sino o'z tadqiqotlarida tibbiyotda jarrohlik usuli, masalan, buyrak toshlarini jarrohlik yordamida olib tashlash, turli xil jarohatlarni davolash usuli haqida ham yozadi. U xalq tabobatiga xos giyohlardan dorivorlar olish va ularni davolashda qo'llash to'g'risida katta ta'limotini qoldirgan. Ibn Sinoning yana bir asari – "Al-adviya al-qalbiya" ("Yurak dorilari") kitobida yurak xastaliklarida qo'llaniladigan va o'zi ixtiro etgan dori-darmonlar hamda ularni tayyorlash usullari to'g'risida fikr yuritadi.

Yuqorida aytiganidek, O'rta Osiyoda, unga yondosh Sharq mamlakatlarida qadimdan dorivor o'simliklar va ovqat moddalari xususiyatlari, ularning inson organizmiga yetkazadigan foyda va zararli taraflari katta qiziqish bilan o'rganilgan. Natijada, xalq qo'lida asta-sekin tabobatga oid ko'pgina ma'lumotlar yig'ilib borgan. Ular esa keyinchalik tibbiy asarlar yaratishda tayanch manbalardan biri bo'lgan. Beruniy, Ibn Sinoning tibbiyotga oid buyuk asarlari shundan dalolat beradi. Shu bilan birga, ulardan keyin ham Movarounnahr va Xurosonda biri-biridan salohiyatli yana ko'plab hakimlar etishib chiqqani beziz emas. Masalan, o'sha davrning yirik tabiblaridan biri Badriiddin Samarqandiy har xil kasalliklarga qarshi murakkab dorilar tayyorlab, tajribada sinab ko'rgan. XIII asrning mashhur tabiblaridan biri Abu Hamid Muhammad ibn Ali ibn Umar Najibuddin Samarqandiyning "Ag'ziyat al-marzo" ("Kasallar iste'mol qiladigan ovqatlar") nomli kitobi saqlanib qolgan. Unda

har bir kasallikda qanday taom iste'mol qilinishi va qaysi ovqatlardan ehtiyot bo'lish lozimligi, shuningdek, ovqatlarning dorivorlik xususiyatlari bayon etiladi.

40 yildan ortiq vaqt mobaynida tabobat ilmi va amaliyoti bilan shug'ullangan Sulton Ali tabib Xurosoniy (XV–XVI asrlarda yashagan) o'z tajribalari asosida ikki kitob yozgan. Ulardan biri "Dastur al-iloy" ("Kasallarni davolash bo'yicha qo'llanma") deb ataladi.

XV–XVI asrlarda Hindistonda yashab, tabobat sohasida ilmiy va amaliy faoliyati bilan shug'ullangan Yusuf ibn Muhammad al-Hiroviy ham O'rta Osiyo, Xuroson va Hindistonda tabobatning taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shgan.

Shuningdek, o'tgan asrlarda Xorazmda ham bir qator mashhur tabiblar yashab, faoliyat olib borganlar. Jumladan, Abulg'ozixon ibn Arab Muhammad Xorazmiy (1603–1664) dan bizgacha bir necha tibbiy asarlar saqlanib qolgan. Uning salmoqli asarlaridan biri "Manofi al-inson" ("Inson uchun foydali dorilar") deb ataladi. Yoki XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida yashagan dovrugli tabib Ja'farxo'ja ibn Hazoraspiy o'zbek tilida "Multaqiy at-tib" ("Tibbiy ma'lumotlar to'plami") kitobini bitgan. 67 bobdan iborat ushbu asarda inson organizmining har xil kasalliklari va ularni dorilar bilan davolash usullari bayon etilgan.

Shuningdek, Farg'onada vodiysida yashagan Mahmud Hakim Yaypaniy Ho'qandiy (1851 yilda tug'ilgan) o'z davrigacha bo'lgan Sharq tabibati qo'lga kiritgan yutuqlarni jamlab, hamda o'z shaxsiy tabiblik tajribalari bilan boyitib, "Qonun al-iloy" ("Davolash qonuni") va "Tariq al-iloy" ("Davolash usuli") nomli kitoblarini yozgan. Ularda o'pka, yurak, sut bezi, me'da, jigar, ichak, buyrak, qovuq va isitma kasalliklari, shishlar, toshmalar, jarohat va yaralar, suyaklar sinishi, zaharlanish, zaharli mavjudotlar chaqganda qo'llaniladigan dorilar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Yana bir hakim – Bositxon Zohidxon o'g'li o'z tabobat kitoblarida Beruniy, Muhammad Zakariyo Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sino, Iloqiy, Naxjibuddin Samarqandiyarning asarlaridan keng foydalangan. Bizgacha uning 3 ta kitobi yetib kelgan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Hikmatullaev X. Abu Ali ibn Sinoning "Yurak dorilari" nomli risolasi, T. 1966; Shoislamov Sh. Ibn Sinoning tibb haqidagi she'riy asari ("Urjuza") T. 1972; Abu Ali ibn Sinoning sog'lijni saqlashga doir risolalari, E. Talabov tarjimasi, T. 1978. Bu va undan tashqari Ibn Sinoning quyidagi 7 risolasi U. I. Karimov va X. Hikmatullaevlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan: "Tibbiy risolalar to'plami" nomi bilan bir kitob shaklida nashr qilingan (T. 1987): "Tomir urishi haqida maqola", "Shahvoniy

kuchlar haqida risola”, “Sardora quvvatlarining tadbiri haqida risola”, “Sikzakbo‘yin osteomieliti va uning oliyligi haqida risola”, “Sachratki haqida risola”, “Judiya risolasi” va boshqalar.

2. Abu Ali ibn Sino. Tibb qonunlari, I kitob, T. 1983 (tarjimonlar A. Rasulov, S. Mirzaev, U. I. Karimov, A. Murodov); II kitob, T. 1982 (tarjimonlar S. Mirzaev, A. Rasulov, U. I. Karimov, A. Murodov, K. Munirov); III kitob, 1-jild, T. 1979 (tarjimonlar A. Rasulov, M. A’zamov); III kitob, 2-jild, T. 1980 (tarjimonlar S. Mirzaev, A. Rasulov); IV kitob, T. 1980 (tarjimonlar A. Rasulov, A. Urinboev); V kitob, T. 1980 (tarjimonlar U. I. Karimov, K. Munirov). Ikkinchchi nashr tayyorlovchilari: U. I. Karimov va X. Hikmatullaev.